

«ISHQORIY-YER METALLAR» MAVZUSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Ibragimova M.M.¹

Yaxshimuratov M.R.²

Dushamov D.A.³

¹ Talaba, Urganch davlat universiteti

² O'qituvchi, Urganch davlat universiteti

³ Dotsent, Urganch davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6320609>

Annotatsiya. Mazkur maqolada anorganik kimyo fanining "Ishqoriy-yer metallar" mavzusini o'qitishda interfaol metodlarning tadbiri bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: anorganik kimyo, ishqoriy-yer metallar, interfaol metodlar, "Taqdimot" usuli, "Sxema" usuli, konseptual jadval, mustaqil fikrlas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PK-4805 sonli "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida kimyo va biologiya fanlari bo'yicha ta'lim sifatini tubdan oshirish, umumta'lim maktablarida shu fanlarni o'qitishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Bu boradagi topshiriqlarni bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli amalga oshirish, sog'lom, har tomonlama barkamol avlodni yetishtirish, ko'p jihatdan uzluksiz ta'lim tizimida mehnat qilayotgan o'qituvchi faoliyatiga, uning kasbiy nufuzini oshirishiga, pedagogning saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqdir.

Shunday ekan, o'qituvchi har tomonlama rivojlangan ilmiy tafakkuri, kasbiga tegishli ma'lumoti, ya'ni o'z fanining chuqur bilimdoni, pedagogik muloqot ustasi, pedagogik-psixologik hamda uslubiy bilim va malakalarni egallagan bo'lishi kerak. Shuningdek, turli pedagogik vaziyatlarni tezda sezishi, o'rganishi va baholay olishi, pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

O'quvchilarga yangi tizimda ta'lim berishda zamonaviy ta'lim usullarini qo'llash, mavzuni yoritishda ta'lim vositalarining samarali usullarini tanlash muhim ahamiyat kasb qiladi. Bu borada anorganik kimyoning "Ishqoriy-yer metallar" mavzusini o'qitishda o'quvchilarga mavzuni o'zlashtirish imkonini beruvchi interfaol metodlarning quyidagilaridan foydalanish mumkin.

"Taqdimot" usulidan foydalanish

Ta'lim jarayonida "Taqdimot" usuli o'rganiladigan "Ishqoriy-yer metallar" mavzusi mohiyatining kompyuterdan foydalangan holda slaydlar yordamida ochib berilishini ta'minlaydi.

O'qituvchi mavzuning asosiy tayanch tushunchalari, shuningdek, muhim xususiyatlari - ishqoriy-yer metallarining tabiatda uchrashi, olinishi, fizik xossalari, kimyoviy xossalari, muhim birikmalari va ularning ishlatilishi tartibida jadval, reaksiya, sxema va rasmlar asosida yoritib berishi va dars jarayonida qo'llashi mumkin.

"Taqdimot" usuli o'quvchilarda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi.

“Sxema” usulidan foydalanish

“Sxema” usuli o’rganilayotgan mavzu mohiyatining asosiy xususiyati yoki belgilarini sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalanishini ta’minlaydi va uni mavzuni mustahkamlash jarayonida ham qo’llash mumkin.

Masalan, o’rganilayotgan «Ishqoriy–yer metallari» mavzusiga oid ma’lumotlarni o’quvchilarga A1 formatdagi chizma qog’ozga chiqish topshiriladi. Topshiriqni bajarish jarayonida o’quvchilar o’rganilayotgan mavzu bo’yicha o’zlashtirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim reaksiyalar va ularda qo’llaniladigan reagentlarni aniqlaydi, ma’lumotlarni umumlashtiradi.

Ishqoriy-yer metallarning tabiatda uchrashi, olinishi, fizik-kimyoviy xossalari va ularning ishlatilishi bo’yicha ma’lumotlar jamlanadi va quyidagiga o’xshash sxema ishlab chiqiladi (*1-rasm*).

O’quvchilarda fikrlash, ijodkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu usul g’oyaning qisqa, aniq ifodalanishi uchun sharoit yaratadi. Bu hosil qilingan sxema orqali o’quvchilarning mavzuni o’zlashtirish imkoniyati oshadi.

Ishqoriy-yer metallar mavzusiga tegishli suvning qattiqligi tushunchasini o’quvchilarga tushuntirishda «konseptual jadval»dan foydalanishimiz mumkin (*1-jadval*). Unda o’quvchilar o’rganilayotgan tushunchaga xos tavsiflar, toifalar, ajralib turadigan belgilar, g’oyalarni taqqoslashni amalga oshiriladi. Konseptual jadval tuzish o’rganilayotgan ilmiy konsepsiyalarning ikki yoki undan ortiq farqli va umumiy jihatlarini taqqoslash imkonini beradi va tizimli mushohada qilish, ma’lumotlarni taqqoslash va tasniflash ko’nikmasini rivojlantiradi.

Shunday qilib, biz anorganik kimyo fanining «Ishqoriy–yer metallari» mavzusini o’qitishda ta’lim texnologiyalarining qo’llanilishi bo’yicha o’z tavsiyalarimizni keltirdik. Ushbu usullarni qo’llash o’quvchilar bilimini oshirishda yaxshi imkoniyatlarga ega va o’qituvchining o’quvchilarga yangi mavzu bo’yicha beradigan materiallarini o’zlashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, o’qituvchi o’quvchi bilan hamkorlikda ishlay olishi, fanni chuqur o’zlashtirishiga imkon yaratishi, mavzuni sodda, qiziqarli va albatta to’liq tushuntirib berishi, mavzuning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, qo’llash mumkin bo’lgan eng qulay va samarali ta’lim texnologiyalaridan o’rinli foydalana olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi “Kimyo va biologiya yo’nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PK-4805 sonli qarori.
2. Ў.Х.Мухамедов, М.Х.Усмонбоева, С.С.Рустамов. Таълимни ташкил этишда замонавий интерфаол методлар. –Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. -45 б.